



SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Majidova Dilnoza Bahromovna

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0007-0478-0509

majidovad93@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati misolida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish dinamikasi iqtisodiy-statistik usullar yordamida tahlil qilinib prognozlashtirilgan. Shuningdek, mintaqalarda meva-sabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: meva-sabzavot, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik usullar, ishlab chiqarish, prognozlash.

ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВА ПЛОДА И ОВОЩЕЙ В СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Меджидова Дилноза Бахромовна

Термезский государственный университет

Аннотация. В данной статье на примере Сурхандарьинской области анализируется и прогнозируется динамика производства плодоовощной продукции с использованием экономико-статистических методов. Также разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на дальнейшее развитие плодоовощной отрасли в регионах.

Ключевые слова: фрукты и овощи, динамические ряды, статистические и эконометрические методы, производство, прогнозирование.

ECONOMIC AND STATISTICAL ANALYSIS OF PRODUCTION OF FRUIT AND VEGETABLES IN THE SURKHONDARYA REGION

Mejidova Dilnoza Bakhromovna

Termez State University

Abstract. In this article, using the example of the Surkhondarya region, the dynamics of production of fruit and vegetable products is analyzed and forecasted using economic and statistical methods. Scientific proposals and practical recommendations aimed at further development of the fruit and vegetable industry in the regions are also developed.

Keywords: fruits and vegetables, dynamic series, statistical and econometric methods, production, forecasting.

Kirish.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan qishloq xo'jaligi sohasidagi tuzilmaviy-tarkibiy o'zgarishlar milliy iqtisodiyot rivojlanishi, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash muammolarini hal etish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va eksport qilish hajmlarini ko'paytirish, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar doimiy ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, so'nggi yillarda bir qator Farmon va Qarorlar qabul qilindi. Bularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853 sonli farmoni (Farmon, 2019) hamda 2018 yil 17 oktyabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3978 qarorini (Qaror, 2018) keltirish mumkin. Mazkur Farmon va Qarorlardagi vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonlari va tendensiyalarini iqtisodiy-statistik tahlil etish va ekonometrik modellashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida mintaqalarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va uni iqtisodiy-statistik tahlil qilish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu jarayonlarni mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan G'ulomovning (2014) fikricha, mintaqalarda aholini meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash borasidagi davlat siyosati hamda mintaqalarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda innovatsiyalarning roli eng muhim jarayon sifatida qaraladi.

Iqtisodchi olim Abdug'aniyev (2020) ilmiy ishlarida asosan mintaqalarda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, hosildorlik ko'rsatkichlarini modellashtirish jarayonlariga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, qishloq xo'jaligi faoliyatining eng ustuvor istiqbollarini tahlil qilish va aniqlashga to'g'ri yo'naltirilgan ekonometrik modellarni tuzish juda muhim.

Mamaraximov (2016) ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarini o'rganib chiqqan bo'lib, uning fikricha, mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, asosan o'zining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va ichki sotish bozorlarini rivojlantirishga, qisman, chet ellardan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish hisobiga amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi ko'rsatilgan.

Fazilov (2008) esa, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rnini bosishga qaratilgan strategiyalarning uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi, mamlakatda aholini sifatli tovarlar bilan ta'minlashda ijobiy ta'sir ko'rsatilishi keltirilgan.

Xorijlik olimlardan Chayanov (1927) o'z ilmiy asarlarida mintaqalarda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi masalalarini tahlil qilgan. Unda kooperatsiyaning iqtisodiy mohiyatini mustaqil ravishda o'z faoliyatini birlashtiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlari mushtarakligini ta'min etuvchi munosabat sifatida tariflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqalarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida dinamik qatorlari, prognozlash va iqtisodiy-statistik usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Meva va sabzavotlarni ishlab chiqarish asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini modellashtirish asosiy tendensiya va dinamikaning bog'langan qatorlari kabi turli modellar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Tahlil natijalariga ko'ra hududlarda bunday mahsulotlarni ishlab chiqarish dinamikasini o'rganishdan asosiy maqsadi ularning vaqt bo'yicha rivojlanish qonuniyatini aniqlash va baholashdan iboratdir. Bunga dinamik qatorlarni tuzish va tahlil qilish orqali erishish mumkin.

Ma'lumki, dinamik qatorlari deb, ijtimoiy hodisa va jarayonlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini tavsiflovchi sonlar qatoriga aytiladi.

Ilmiy adabiyotlarda (Shodiyev, Xabibullayev, 2013), dinamik qatorlar yordamida ijtimoiy iqtisodiy hodisa va jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish vaqt bo'yicha rivojlanish darajasini baholash, statistik ko'rsatkichlar tizimi vositasida o'rganilayotgan hodisa dinamikasini baholash, rivojlanishning asosiy tendensiyalarini aniqlash va miqdoriy baholash, davriy tebranishlarni o'rganish, bashoratlash va ekstropolyatsiya qilish kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Odatda o'rganilayotgan hodisa va jarayonlar dinamikasini miqdoriy jihatdan baholashda quyidagi statistik ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Mutlaq o'zgarish - dinamika ikki hadining farqiga aytiladi.

Mutlaq o'zgarish bazis usulida quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\Delta Y_b = Y_i - Y_0$$

Zanjirsimon usulda esa quyidagi ko'rinishida hisoblanadi:

$$\Delta Y_z = Y_i - Y_{i-1}$$

Bu yerda: ΔY_b va ΔY_z -bazisli va zanjirsimon usullarda hisoblangan mutlaq o'zgarish;

Y_i - taqqoslanuvchi had;

Y_0 - baza deb qabul qilingan taqqoslanadigan had;

Y_{i-1} - taqqoslanuvchi haddan oldin keluvchi taqqoslanadigan had.

Dinamikani o'rganishda eng ko'p tarqalgan va ishlatiladigan ko'rsatkichlardan bir o'zgarish suratidir.

O'zgarish sur'ati - qatorning ikki hadi nisbatiga aytiladi. Bu ko'rsatkich koeffitsiyentda va foizda (%) ifodalanib, quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$R_b = \frac{Y_i}{Y_0} \cdot 100\% \quad \text{va} \quad R_z = \frac{Y_i}{Y_{i-1}} \cdot 100\%$$

$R_b > 100\%$ bo'lsa, bazis davrga nisbatan ko'rsatkich o'sgan;

$R_b = 100\%$ bo'lsa, hech qanday o'zgarish bo'lmagan;

$R_b < 100\%$ bo'lsa, o'rganilayotgan had o'zidan oldingi hadga nisbatan kamayib ketgan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ba'zi adabiyotlarda bu ko'rsatkich o'sish surati deb ham yuritiladi va u doim ijobiy belgiga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.

Qo'shimcha o'zgarish sur'ati - hodisalarning mutlaq o'zgarishini dinamika qatorlarining boshlang'ich hadiga nisbatiga aytiladi va quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$\Delta R_b = \frac{\Delta Y_b}{Y_0} \cdot 100\% \quad \text{va} \quad \Delta R_z = \frac{\Delta Y_z}{Y_{i-1}} \cdot 100\%$$

Bu ko'rsatkichni bazisli va zanjirsimon usullardan foydalanib hisoblash mumkin.

Yuqorida keltirilgan formulalar yordamida Surxondaryo viloyatida meva va sabzavotni ishlab chiqarish hajmi dinamikasini 2009-2023 yillar kesimida tahlil qilib chiqamiz.

Ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida viloyatida meva va sabzavot mahsulotlarini yetishtirish dinamikasi tahlili ancha barqarorlashgan ijobiy tendensiya borligini ko'rsatgan bo'lsa-da, mevalarni yetishtirishda oxirgi bir yilda deyarli o'zgarish bo'lmagan va sabzavotlarda esa o'sish surati biroz past bo'lganligini ko'rish mumkin. Shuni qayd etish joizki, meva va sabzavot yetishtirishning past sur'atda o'sishiga noqulay ob-havo sharoiti sabab bo'lgan (1-jadval).


1-jadval

Surxondaryo viloyatida 2009-2023 yillar uchun meva va sabzavot ishlab chiqarish hajmi dinamikasi tahlili

Yillar	Ishlab chiqarilgan (tonna)	Mutlaq o'zgarish		O'zgarish sur'ati		Qo'shimcha o'zgarish surati	
		Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli
Mevalar							
2009	84 122,7			100			
2010	92 293,0	8 170,3	8 170,3	109,7	109,7	9,7	9,7
2011	101 542,0	17 419,3	9 249,0	120,7	110,0	20,7	10,0
2012	108 763,0	24 640,3	7 221,0	129,3	107,1	29,3	7,1
2013	119 085,0	34 962,3	10 322,0	141,6	109,5	41,6	9,5
2014	124 806,0	40 683,3	5 721,0	148,4	104,8	48,4	4,8
2015	137 782,0	53 659,3	12 976,0	163,8	110,4	63,8	10,4
2016	154 457,0	70 334,3	16 675,0	183,6	112,1	83,6	12,1
2017	137 416,0	53 293,3	-17 041,0	163,4	89,0	63,4	-11,0
2018	154 646,0	70 523,3	17 230,0	183,8	112,5	83,8	12,5
2019	157 900,0	73 777,3	3 254,0	187,7	102,1	87,7	2,1
2020	164 500,0	80 377,3	6 600,0	195,5	104,2	95,5	4,2
2021	172 500,0	88 377,3	8 000,0	205,1	104,9	105,1	4,9
2022	180 300,0	96 177,3	7 800,0	214,3	104,5	114,3	4,5
2023	180 300,0	96 177,3	0,0	214,3	100,0	114,3	0,0
Sabzavotlar							
2009	429 567,3	-	-	100	-	-	-
2010	486 419,0	56 851,7	56 851,7	113,2	113,2	13,2	13,2
2011	540 157,0	110 589,7	53 738,0	125,7	111,0	25,7	11,0
2012	632 885,0	203 317,7	92 728,0	147,3	117,2	47,3	17,2
2013	689 835,0	260 267,7	56 950,0	160,6	109,0	60,6	9,0
2014	807 007,0	377 439,7	117 172,0	187,9	117,0	87,9	17,0
2015	896 498,0	466 930,7	89 491,0	208,7	111,1	108,7	11,1
2016	966 804,0	537 236,7	70 306,0	225,1	107,8	125,1	7,8
2017	1 013 434,0	583 866,7	46 630,0	235,9	104,8	135,9	4,8
2018	913 985,0	484 417,7	-99 449,0	212,8	90,2	112,8	-9,8
2019	976 700,0	547 132,7	62 715,0	227,4	106,9	127,4	6,9
2020	1 013 500,0	583 932,7	36 800,0	235,9	103,8	135,9	3,8
2021	1 066 000,0	636 432,7	52 500,0	248,2	105,2	148,2	5,2
2022	1 143 800,0	714 232,7	77 800,0	266,3	107,3	166,3	7,3
2023	1 169 200,0	739 632,7	25 400,0	272,2	102,2	172,2	2,2

Manba: Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asosan muallif hisob-kitobi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 180 300 tonna meva (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga, 39,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 3,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rish mumkin.



1-rasm. Surxondaryo viloyatida 2009-2023 yillarda meva ishlab chiqarish hajmining xo'jalik toifalari bo'yicha ko'rsatkichlari

Manba: Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asosan muallif hisob-kitobi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 169 200 tonna sabzavot (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga, 26,1 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga va 6,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilgan. Joriy yilda barcha hududlarda meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, meva yetishtirish umumiy hajmida ularning ulushi 96,9 foizni, sabzavot esa 96,3 foizni tashkil etdi.



2-rasm. Surxondaryo viloyatida sabzavot ishlab chiqarish hajmining xo'jalik toifalari bo'yicha ko'rsatkichlari

Manba: Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asosan muallif hisob-kitobi.

Tahlilni tendensiyalarni aniqlash va baholash orqali davom ettirsak, asosiy tendensiyalarni o'rganish jarayonida o'rganilayotgan hodisada trend mavjudligi va aniqlangan trendni statistik baholash kabi vazifalar hal etiladi.

Dinamik qatorlarda trendni aniqlashda o'rtachalar usuli, Valliss va Mur mezoni, Koks va St'yuart mezoni, seriyali usul, grafiklarda tasvirlash usuli kabilardan foydalanib amalga oshiriladi.

Surxondaryo viloyatida meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasida trendning mavjudligini aniqlashda grafiklarda tasvirlash usuli orqali amalga oshirildi va trend mavjudligi asoslandi. Chunki grafik tasvirdan ko'rinib turibdiki, viloyatda yetishtirilgan meva-sabzavotlar dinamikasi yaqqol o'sish tendensiyasiga ega.

Viloyatda meva va sabzavot mahsulotlari yetishtirishning asosiy ko'rsatkichlari tendensiyasi tahlili keyingi bosqichidagi muhim vazifa – ko'rsatkichlar o'zgarishi real mavjud bo'lgan qonuniyatlarini eng yaxshi tarzda tavsiflovchi regressiya tenglamasini tanlab olishdir.

Tahlilni amalga oshirish dasturiy vositasi sifatida EXCEL elektron protsessoridan foydalanib, viloyat meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi rivojlanish yo'nalishi uchun mos bo'lgan trend parametrlarini hosil qilamiz. Natijalari 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval

Surxondaryo viloyatida 2009-2023 yillarda meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari trend modellari

Rivojlanish yo'nalishi	Trend tenglamasi	O'rtacha mutlaq xatolik	R ²
Sabzavot mahsulotlari yetishtirish			
1. Bir tekis rivojlanish	$\bar{Y}_t = 51660t + 436437$	51 756,9	R ² = 0,93
2. Tekis tezlashgan rivojlanish	$\bar{Y}_t = -2570,7t^2 + 92792t + 319897$	39 416,7	R ² = 0,96
3. Ekspontensial rivojlanish	$\bar{Y}_t = 474805e^{0,0673t}$	73 921,5	R ² = 0,88
Meva mahsulotlari yetishtirish			
1. Bir tekis rivojlanish	$\bar{Y}_t = 6981,4t + 82177$	3859,9	R ² = 0,97
2. Tekis tezlashgan rivojlanish	$\bar{Y}_t = -186,29t^2 + 9962t + 73731$	2876,2	R ² = 0,98
3. Ekspontensial rivojlanish	$\bar{Y}_t = 87698e^{0,0533t}$	5882,3	R ² = 0,94

Manba: Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asosan muallif hisob-kitobi.

Tahlil davomida 2009-2023-yillar uchun viloyatda meva va sabzavot ishlab chiqish hajmlari uchun mos bo'lgan trend tenglamalarini aniqlagan bo'lsak, endi shu qatorni davom ettirish mumkin. Surxondaryo viloyati meva va sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqish hajmlari uchun tanlangan 2-jadvalda aniqlangan trend tenglamalaridan foydalanib, ekstrapolyatsiya qilish usuli orqali prognoz qiymatlarini hosil qilamiz (3-jadval).


3-jadval

Surxondaryo viloyati meva va sabzavotlarni yetishtirish hajmini o'rganish orqali olingan prognoz qiymatlari (tonna)

Ko'rsatkich (faktor o'zgaruvchisi)	Trend tenglamasi	Haqiqiy	Prognoz					2023-y 2028-y %
			2023 y	2024 y	2025 y	2026 y	2027 y	
Sabzavot	$\bar{Y}_t = -2570,7t^2 + 92792t + 319897$	1169200	1146470	1154429	1157246	1154922	1147457	98
Meva	$\bar{Y}_t = 6981,4t + 82177$	180 300	193879	200861	207842	214824	221805	123

Manba: Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asosan muallif hisob-kitobi.


Prognoz natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2028-yilda Surxondaryo hududida sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlari 2023-yilga nisbatan 2% kamayishi, meva yetishtirish esa 23 % ko'tarilishi kutilmoqda (3-jadval).



3-rasm. Surxondaryo viloyatida meva yetishtirish dinamikasining prognozi (tonna)

Manba: muallif ishlanmasi.

Meva mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichi ko'tarilib boradi va 2028-yilga kelib viloyat aholisi fiziologik me'yorning 112 foizini tashkil qilishi mumkin (3-rasm).




4-rasm. Surxondaryo viloyatida sabzavot yetishtirish dinamikasining prognozi (tonna)

Manba: muallif ishlanmasi.

Sabzavot mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichi esa kamayib boradi va 2028-yilga kelib fiziologik me'yorning 102 foizini tashkil qilishi mumkin (4-rasm).

Xulosa va takliflar.

Bu keltirilgan tahlil va ma'lumotlarga asosan, mintaqalarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va qishloq xo'jaligi sohasini barqaror rivojlantirish uchun bir nechta yo'nalishlarda ishlar olib borishni talab etadi (5-rasm).



5-rasm. Mintaqalarda meva-sabzavotchilik tarmog‘ini yanada qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar

Manba: tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, aholini meva va sabzavot bilan ta‘minlash jarayonlarni vaqt davomida o‘zgarishini iqtisodiy statistik usullar orqali o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlarda aholini meva-sabzavot bilan ta‘minlash jarayonlarini iqtisodiy-statistik modellar orqali o‘rganish natijasida u yoki bu iqtisodiy ko‘rsatkichlarning hozirgi holati va kelajakdagi o‘zgarishini ilmiy asosda tahlil qilish va bashoratlash kutilgan samara beradi.

Yuqorida Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot yetishtirish dinamikasi ko‘rsatkichlari ma‘lum usullardan foydalanilgan holda keng qamrovli tahlil qilingan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar qishloq xo‘jaligining tarmog‘i rivojlanishini kompleks baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar/Jumepamyra/Reference:

Abdug‘aniyev O.A. (2020) *Iste‘mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini modellashtirish // Dissertatsiya (Rhd). Toshkent.*

Abdug‘aniyev O.A. (2021) *“Iste‘mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari samaradorligini iqtisodiy-statistik tahlil etish uslubiyatini takomillashtirish.” // Iqtisodiyot va ta‘lim ilmiy jurnali. Toshkent, 17-20 betlar;*

Abdug‘aniyev O.A. (2021) *“O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish.” // “UzBridge” elektron jurnali Toshkent, №2, 1-17 betlar;*

Farmon (2019) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 sonli farmoni;*

Fazilov F.M. (2008) *Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash: Iqtisod fan. nom. dis. ...avtoref.-T.: JIDU, 19-bet.*

G'ulomov S.S. (2014) "Mintaqalar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda innovatsiyalarning roli." // O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi tarmoqlarida innovatsion boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash va rivojlantirish muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (1-qism). Toshkent, TDAU. 15-aprel. 24-26 betlar;

Mamaraximov B.E. (2016) "O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sanoatini rivojlantirish". // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 4-6 betlar.

Qaror (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 oktyabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3978 qarori;

Shodiyev X., Xabibullayev I. (2013) "Statistika" Darslik- Toshkent, 122-149 betlar;

Чаянов А.В. (1927) Основные идеи и формы организации сельскохозяйственной кооперации. – Москва. - 357 б;